



**ABU ALI IBN SINONING “YUSUF QISSASI” VA “SOLOMON VA
IBSOL” QISSALARIDAGI BADIY O’XSHASHLIKAR VA UNING
FALSAFIY TAHLILI.**

Omonova Muxlisa Odil qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 1-bosqich talabasi

muhlisaomonova36@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Ali ibn Sino ijodiga mansub “Yusuf qissasi” hamda “Solomon va Ibsol” qissalarining badiy va falsafiy jihatdan o’zaro o’xshash tomonlari tahlil qilinadi. Har ikki asarda tuhmat, sabr, ruhiy poklanish va ilohiyadolat g’oyalari markaziy o’rinda turadi. Yusuf va Ibsol obrazlari orqali begunoh insonning boshiga tushgan og’ir sinovlar, ularning sabr-toqati, tozalikka sodiqligi va oxir-oqibatda haqiqatning g’alaba qilishi badiy vositalar orqali yuksak falsafiy darajada yoritiladi. Qissalar, ayni paytda, Sharq mumtoz adabiyotining inson ruhiy olamini o’rganishga oid yondashuvlarini ham ochib beradi. Maqolada bu ikki asar orasidagi mazmuniy va g’oyaviy yaqinlik, badiy o’xshashligini va falsafiy tahlili o’rganilib chiqiladi.

Kalit so’zlar. Sabr, tuhmat, haqiqat, ruhiy poklanish, ilohiyadolat, axloq.

Buyuk daho Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino hijriy 370 (milodiy 980) yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlog‘ida tug‘ilgan. Ibn Sino 1002-yilda Buxorodan chiqib ketadi, Urganch, Obivard, Naso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda bo‘ladi. U 1037-yilda (hijriy 428) 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi. Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi ma’lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o‘ndan ortig‘i astronomiyaga oid asarlardir va hok.Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», G‘arbd esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur. Uning nasriy asarlari arab tilida yozilgan. «Yusuf qissasi» Qur’on syujeti asosida yozilgan birinchi asar bo‘lib, ramziy-majoziy



usuldadir. «*Rasolat – at tayr*» («*Qush risolasi*»), «*Uyg‘oq o‘g‘li Tirik*» («*Hayy ibn Yaqzon*») kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, «*Salomon va Ibsol*» esa ishqiy-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, g‘azal, ruboiy, fardlar yaratgan. Ayniqsa, “*Yusuf qissasi*” va “*Solomon va Ibsol*” qissalari inson qalbining nozik tomonlarini, hayotning sinovlari va insonning o‘zgarishi jarayonini badiiy va falsafiy jihatdan ko‘rsatadi. Ushbu maqolada ushbu ikki asardagi badiiy o‘xhashliklar, ularning umumiy falsafiy g‘oyalari va insoniylik haqidagi mulohazalari keng tahlil qilinadi.

Asarlari «*Kitob ash-shifo*», «*Donishnama*», «*Kitob al-qonun fi-t-tib*» «*Tib qonunlari kitobi*», 5 kitob, 14 jiddan iborat bo‘lgan, «*Salomop va Ibsol*», «*Yusuf qissasi*», «*Risolat at-tayr*» («*Qush risolasi*»), «*Uyg‘oq o‘g‘li Tirik*», «*Tibbiy urjuza*», «*Faan ash-she’r*», «*She’r san’ati*», she’r ilmi, yunon she’riyatining tur va shakllari haqida), «*Musiqa ilmida katta to‘plam*»

Solishtirilayotgan har ikki qissaning qisqacha mazmuni va undagi badiiy o‘xhashliklar keltirilib o’tiladi .

Yusuf (arabcha: إِبْرَاهِيمُ أَبْنَ إِسْحَاقَ أَبْنَ يَعْقُوبَ أَبْنَ يُوسُفَ; Yusuf ibn Ya’qub ibn Ishoq ibn Ibrohim)-Qur’onda tilga olingan payg‘ambarlardan biri. Rivoyatlarga ko‘ra, Ya’qub payg‘ambarning Rohila ismli xotinidan bo‘lgan sevikli o‘g‘li. Bibliyada Iosif deb tilga olingan. Qur’onning 12-surasi Yusuf nomi bilan ataladi. Alloh Yusufga tushlar ta’birini aniq ayta olish qobiliyatini ato etdi. Naql qilishlaricha, Ya’qub o‘z farzandlari orasida Yusufni ko‘proq yaxshi ko‘rar edi. Akalari unga hasad qilib Yusufni quduqqa tashlab yuboradilar, otalariga esa, Yusufni dashtda bo‘ri yeb ketdi, deb yolg‘on gapiradilar. Karvonda ketayotganlar Yusufni quduqdan chiqarib misrlik katta amaldorga sotadilar. Amaldorning xotini Yusufni sevib qolib yo‘ldan urmoqchi bo‘ladi. Yusuf zino qilishdan o‘zini tiyadi, lekin Zulayho ig‘vosi tufayli gunohsiz zindonga tashlanadi. Zindondagilarning va Misr hokimining tushi ta’birini to‘g‘ri aytib, u yerdan qutuladi. Davlat xazinasini saqlovchi lavozimiga tayinlanadi. Yusuf Misr taxtidaadolat bilan hukm yurgiza boshladi. Boshqa davlatlarda ocharchilik yuz berganda ham, Misr zaminida to‘kinchilik bo‘ladi. Ittifoqo Kan’on (hozirgi Livan)dan uning akalari don so‘rab kelib qolib, Yusufni tanimaydilar. Yusuf bir puxta tadbir



bilan ularni o‘z xato-gunohlariga iqror qiladi va otasi Ya’qubning ko‘zлari ochilishiga sabab bo‘ladi. Uni Misrga olib keladi[1].

"Solomon va Ibsol" .Bu qissada Solomon ismli podsho va uning ukasi Ibsol haqida hikoya qilinadi. Ibsol yosh va begunoh bo‘lishiga qaramay, fitnalarga uchraydi. Solomonning xotini Ibsolga yomon niyat bilan yaqinlashadi. Ammo Ibsol uning buzg‘unchi niyatini rad etadi. Shundan keyin ayol uni tuhmat qilib, Solomonni chalg‘itadi. Natijada Solomonning xotini zolim odamlarni gaplashib,, ukasini o‘ldirish uchun dushmanlarga topshiradi. Ibsol jangda halok bo‘lishi kerak edi, biroq u og‘ir yarador holatda omon qoladi. Uni o‘rmonda bir oq kiyik boqadi, u suti bilan Ibsolni tirik saqlaydi. U shaxriga qaytib keladi qaniydi yangasining bu yomon ig‘vodan qo‘lini tortgandir degan umid bilan kelsa yangasining unga tashlagan nighidan hali ham uni niyati yomon degan hayol o‘tadi. Ibsolning shon-shuhrat yoyletiladi, u adolatli, sadoqatli va dinparvar shaxs sifatida taniladi. U qancha mamlakatlarni bosib olganligi uchun uni nomi yoyletiladi. Biroq Solomonning xotini uni yana zaharlatmoqchi bo‘ladi. Oshpazlar orqali unga zaharli doridan ortiq miqdorda ichirishni buyuradi ammo buni bilib qo‘llangan Ibsol dorini ichmaydi. Solomon bu voqealardan so‘ng xotining va oshpazlarning xiylasini anglaydi. Tangri tarafidan bu yovuzliklar fosh etiladi va zolimlarga jazolari beriladi. Solomon esa pushaymonlik ila qullarini ozod qilib, o‘z yurtida adolatni tiklaydi[2].

Solomon va Ibsol qissasi va Yusuf qissasining badiiy o‘xsha falsafiy tomonlari tahlil:

Har ikkala asarda qahramonlar qiyin sinovlardan o‘tadi. Yusuf aka-ukalari tomonidan hasadga uchrab, quduqqa tashlanadi, Ibsol esa akasi tomonidan dushmanlar qo‘liga topshiriladi. Ular o‘zlarini og‘ir vaziyatlarda topishlariga qaramay, sabr-toqat ko‘rsatib, ruhiy kamolotga erishadi. Bu ikki qahramon hayotiy sinovlarni yengib o‘tish orqali insonning ruhiy qiyofasi va iroda kuchining timsoliga aylanadi. Yusufga Zulayho tomonidan tuhmat qilinishi, Ibsolga esa akasining xotinining fitnasi -bu ikki voqealarni xiyonat, yovuzlik va shaytoniy vasvasalarning inson hayotiga salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu qissalar inson qalbidagi yomonlik va gunohning qanday sinovlar orqali yuzaga chiqishini aks



ettiradi. Ikkala qahramon ham oxir-oqibat haqiqat, adolat va axloqiy kamolot g‘olib bo‘lgan jamiyatda o‘z o‘rnini topadi. Yusuf Misrda yuksak lavozimga erishib, birodarlarini kechiradi, Ibsol esa fitnani ohib berib, adolatli hukmdor sifatida xalqini boshqaradi. Bu esa Ibn Sino dunyoqarashida axloqiy va ma’naviy haqiqatning doimo g‘alaba qozonishiga bo‘lgan ishonchni aks ettiradi. “*Solomon va Ibsol*”da oq kiyikning Ibsolni emizishi, hayvonlarning Ibsolga yordam berishi badiiy jihatdan hayvonlar va odamlar o‘rtasidagi iliq aloqani, tabiatning ham inson bilan hamdardligini ifodalaydi. Bu sahna mutafakkirning tabiat va insoniyat uyg‘unligi haqidagi fikrlarini ohib beradi. Yusuf va Ibsol qalbining pokligi ularning tashqi muammolarga qaramay yuksalishiga sabab bo‘ladi. Yusuf go‘zallik va tozalikka erishib, insoniyat uchun namuna bo‘lsa, Ibsolning jonli tabiat bilan muloqoti uni haqiqiy inson, fidoyi rahbar sifatida ko‘rsatadi.

Ibn Sino falsafasida inson qalbining pokligi va sabrning roli alohida o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, hayotdagi qiyinchiliklar insonni sinovdan o‘tkazadi, lekin chinakam kuchli va ma’naviy yetuk inson faqat sabr va tavakkul bilan har qanday qiyinchilikni yengishi mumkin. Bu jihatdan “*Yusuf qissasi*” va “*Solomon va Ibsol*” qissalarida qahramonlarning yo‘l tutgan yo‘li aynan ruhiy kamolotning yuksalishi sifatida namoyon bo‘ladi. “*Yusuf qissasi*”da sabr va Allohga bo‘lgan to‘liq ishonch insonning barcha tashqi sinovlardan omon qolishining kalitidir. Yusufning hayoti orqali Ibn Sino inson uchun eng asosiy fazilat -bu qalbni tozalash va haq yo‘lda qat’iy turish ekanini ko‘rsatadi.

“*Solomon va Ibsol*” qissasida esa, nafaqat ruhiy sabr, balki ijtimoiy adolat va rahbarlikning axloqiy asoslari ham muhimdir. Ibsolning sahrodagи yolg‘izligi, hayvonlar bilan bo‘lgan mehr-oqibatli munosabati va ularning uni qo‘llab-quvvatlashi, uning qalbining sof va pok ekanligini bildiradi. Bu esa inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanat, ma’naviy uyg‘unlikning timsoli hisoblanadi. Shuningdek, Ibsolning xiyonatga qarshi kurashi, rahbarlikdagi adolat va fidoyilik tushunchalarini falsafiy asoslaydi. Ibn Sino falsafasida dunyo ilohiy tartib va hikmat asosida barqaror bo‘lib, inson bunday tartibni anglab, unga mos yashashi lozim. Shu bois, ikki qissada



ham haqiqiy komillik bu faqat bilim yoki kuch emas, balki qalbning tozaligi, axloqiy kamolot va ruhiy sabrda namoyon bo‘ladi.

“Eni rabbingga tavakkul qil! Rabbing sen eshitgan va bilgan kishilardan hech biriga qilmagan in’omlarini senga qilmadimi?! Sen o‘rganishing kerak bo‘lgan har bir joyda haq nima ekanini ochib ko‘rsatdi. Seni haq yo‘lga yo‘lladi va senga hamma yordamini ko‘rsatdi.”¹ Har ikkala qissa ham sabr, tavakkul,adolat va ilohiy rahmat g‘oyalarini ta’kidlab, hayotdagi sinovlardan yuksak ma’naviy o‘sishga yo‘l ochadi. Ibn Sino inson qalbining pokligi va Allohga bo‘lgan ishonch orqali barcha qiyinchiliklarni yengish mumkinligini buyuk falsafiy did bilan ko‘rsatadi[4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdusodiq Irisov tarjimasi. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/abu-ali-ibn-sino-980-1037-o-zbekiston/abu-ali-ibn-sino-salomon-va-ibsol-qissa>
2. ABU ALI IBN SINO Falsafiy qissalar
3. Po‘latova D. Abu Ali Ibn Sino ma’naviy merosida ratsionalizm va insonparvarlik g‘oyalarining o‘zaro vobastaligi 2024
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yusuf>
5. <https://asarlar.uz/muallif/abu-ali-ibn-sino>